

FARG'ONA VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-dekabr*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi*

Тел. 73-241-97-68

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da




2025- yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 6 907 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 147 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6 760 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 114,2 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024- yillar)




2024- yilning yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati **109,2 %** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 35 002,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,2 % ga yetdi. Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 3 417,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 125,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 28 938,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 106,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 646,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 117,0 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	35 002,4	109,2
shaharlar		
Farg'ona	5 326,9	109,4
Qo'qon	5 736,9	108,8
Quvasoy	654,0	107,9
Marg'ilon	4 884,7	109,0
tumanlar		
Oltiariq	949,6	109,0
Qo'shtepa	1 027,1	108,1
Bag'dod	897,4	108,2
Buvayda	1 505,6	108,7
Beshariq	1 012,7	108,7
Quva	1 432,1	108,9
Uchko'prik	3 478,0	116,2
Rishton	800,3	108,0
So'x	410,3	106,9
Toshloq	620,3	108,1
O'zbekiston	725,5	108,1
Farg'ona	1 100,2	107,8
Dang'ara	568,0	108,1
Furqat	403,6	107,8
Yozyovon	628,8	108,1

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan viloyatning Uchko'prik t (116,2 %) ,Farg'ona sh (109,4 %), Marg'ilon sh (109,0%) va Oltiariq (109,0) tumanida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qo'qon shahri 16,4 % bilan 5 736,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Furqat tumani 1,2 % bilan 403,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.



Hajmi, mlrd so'm

Qo'qon sh.	5 736,0
Farg'ona sh.	5 736,9
Marg'ilon sh.	4 884,7
Uchko'prik	3 478,0
Buvayda	1 505,6
Quva	1 432,1
Farg'ona	1 100,2
Qoshtepa	1 027,1
Beshariq	1 012,7
Oltiariq	949,6
Bag'dod	897,4
Rishton	800,3
O'zbekiston	725,5
Quvasoy sh.	654,0
Yozyovon	628,8
Toshloq	620,3
Dang'ara	568,0
So'x	410,3
Furqat	403,6

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra,


31 585,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 7,7% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,2 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 25,3 % ga o'sdi va 3 417,4 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining


9,8 % ulushiga to'g'ri keldi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



● Yirik korxonalar

● Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Farg'ona (99,2 %), Qo'shtepa (99,0 %) va So'x (98,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik t (42,0 %), Dang'ara t (14,6 %), va Qo'qon (9,2 %) shaharida kuzatildi.




■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

8 530,7 ming so'mni (2023- yilning yanvar-dekabr oylariiga nisbatan 106,9 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Marg'ilon (19 103,4 ming so'm), Qo'qon (18 428,8 ming so'm) va Farg'ona (16 385,4 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-noyabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy voki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	2 646,1	117,0
shaharlar		
Farg'ona	317,0	111,0
Qo'qon	217,1	92,4
Quvasoy	53,6	106,7
Marg'ilon	285,5	112,9
tumanlar		
Oltiariq	64,1	117,5
Qo'shtepa	86,9	85,8
Bag'dod	249,9	179,1
Buvayda	293,1	113,4
Beshariq	282,5	108,4
Quva	228,4	136,4
Uchko'prik	77,5	131,6
Rishton	155,2	134,9
So'x	52,8	141,7
Toshloq	52,0	114,1
O'zbekiston	70,7	117,8
Farg'ona	44,3	116,5
Dang'ara	15,7	153,5
Furqat	4,6	213,4
Yozyovon	95,4	107,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2024- yil yanvar-dekabr)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 646,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 117,0 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 745,7 mlrd so'mni (132,1%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 900,4 mlrd so'mni tashkil etdi (104,0 %).












2024-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 745,7 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (679,8 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>679,8 mlrd so'm</p>  <p>38,9 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>150,6 mlrd so'm</p>  <p>8,6 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>286,4 mlrd so'm</p>  <p>16,4 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>73,0 mlrd so'm</p>  <p>4,2 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>113,4 mlrd so'm</p>  <p>6,5 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>93,2 mlrd so'm</p>  <p>5,3 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>63,3 mlrd so'm</p>  <p>3,6 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>59,9 mlrd so'm</p>  <p>3,4 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>36,6 mlrd so'm</p>  <p>2,1 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>38,8 mlrd so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>24,7 mlrd so'm</p>  <p>1,4%</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>126,0 mlrd. so'm</p> <p>7,4 %</p>

2024- yilning yanvar-dekabr oyida, Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 900,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 701,8 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 183,4 mlrd so'mni, otlar – 9,7 mlrd so'mni, parrandalar – 5,5 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>390,4 mlrd so'm</p>  <p>43,4 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>166,8 mlrd so'm</p>  <p>18,4%</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>144,6 mlrd so'm</p>  <p>16,1 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>179,7 mlrd so'm</p>  <p>20,0 %</p>	<p>Otlar</p> <p>9,7 mlrd so'm</p>  <p>1,1 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>3,7 mlrd so'm</p>  <p>0,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,9 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>2,7 mlrd so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,6 mlrd so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,3 mlrd so'm</p>  <p>0,01%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 733 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 731 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	18 749,1	110,3
shaharlar		
Farg'ona	428,5	106,6
Qo'qon	73,7	117,0
Quvasoy	7,5	121,1
Marg'ilon	129,9	121,0
tumanlar		
Oltiariq	15,9	121,1
Qo'shtepa	14,4	116,5
Bag'dod	8,9	118,0
Buvayda	5,1	116,9
Beshariq	12,7	124,7
Quva	20,0	120,0
Uchko'prik	15,9	125,4
Rishton	28,0	117,7
So'x	8,5	125,8
Toshloq	11,6	117,9
O'zbekiston	7,9	128,2
Farg'ona	20,3	120,1
Dang'ara	11,3	126,0
Furqat	12,5	123,0
Yozyovon	11,5	122,6

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 18 749,1 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Farg'ona viloyati	6 657,4	100,0
Shaharlar		
Farg'ona	2127,7	32,0
Qo'qon	2961,8	44,5
Quvasoy	18,1	0,3
Marg'ilon	490,8	7,4
Tumanlar		
Oltiariq	38,1	0,6
Qo'shtepa	3,7	0,1
Bag'dod	10,3	0,2
Buvayda	22,5	0,3
Beshariq	5,7	0,1
Quva	19,0	0,3
Uchko'prik	155,1	2,3
Rishton	8,5	0,1
So'x	40,4	0,6
Toshloq	100,1	1,5
O'zbekiston	20,3	0,3
Farg'ona	5,9	0,1
Dang'ara	265,0	4,0
Furqat	28,7	0,4
Yozyovon	335,6	5,0


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qo'qon (2 961,8 mlrd so'm), Farg'ona (2 127,7 mlrd so'm) va Marg'ilon (490,8 mlrd so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 6 657,4 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 40,5 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 2 877,9 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 137,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 3 615,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 3,4 m ko'paydi) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.




Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 25 732,3 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,3 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining 24 945,5 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,8 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,9 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

	Hajmi, mlrd so'm	2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	25 732,3	110,3
Shaharlar		
Farg'ona	4438,8	106,1
Qo'qon	4857,0	109,6
Quvasoy	836,4	120,8
Marg'ilon	5340,7	109,5
Tumanlar		
Oltiariq	401,9	106,0
Qo'shtepa	190,9	107,7
Bag'dod	163,2	85,3
Buvayda	722,8	115,2
Beshariq	304,9	115,8
Quva	129,4	115,9
Uchko'prik	1641,6	127,9
Rishton	106,1	127,1
So'x	27,3	101,5
Toshloq	1747,1	112,2
O'zbekiston	365,3	114,6
Farg'ona	588,4	109,4
Dang'ara	574,0	106,9
Furqat	147,9	107,3
Yozyovon	81,6	90,8

2025- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 3 868 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 27 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3 841 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Uchko'prik t (127,9 %), Rishton t (127,1 %) va Quvasoy (120,8 %) shaharida kuzatildi.